

ADABIYOT DARSLARIDA BADIY ASARLARNI TAHLIL QILISH USLUBLARI

Otaxonova Muqaddas Daminovna

Toshkent viloyati Zangiota tumani

2-son kasb hunar maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Adabiyot oddiy soʻzga hayotbaxsh qudrat ato etib, insoniyatning eng nozik tuygʻularini harakatlantiradi, koʻngil atalmish sirlari va moʻjizakor dunyosini taftish qiladi; olam va odamning mohiyati, ular oʻzaro munosabatlarining sabab va oqibatlarini, yashash mezonlari bilan tanishtiradi. Shuning uchun ham ushbu maqolada adabiyot darslarida badiiy asarlarni tahlil qilishning uslublari yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: Adabiyot, tahlil, badiiy obraz, axborot-kommunikatsiya, tahlil usullari, oʻqish jarayoni, uqish, badiiy tahlil, elementar tahlil.

Badiiy adabiyot insoniyat hayotini charogʻon etishi, inson umriga nurafshonlik baxsh etib, maʼnaviy olamini shakllantirishi va yuksaltirishi, porloq kelajak uchun munosib toʻgʻri yoʻlni tanlashga yordam berishi, kitobning insoniyat tomonidan yaratilgan eng buyuk kashfiyot ekanligi bois har qanday davr va zamonda kitob oʻqish, kitobxonlik madaniyatini targʻib qilish dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, bugungi kunda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbuslari bilan mazkur masalalarga davlat siyosati darajasida qaralib, yanada keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu yurtimiz rahbarining quyidagi fikrlarida ham yaqqol aks etgan: “Ayni paytda, axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni oʻzlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob oʻqishga boʻlgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan doʻst boʻlishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida eʼtibor qaratish lozim boʻladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targʻib qilishga alohida eʼtibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi”.

San'at inson evristik faoliyatining oliy ko'rinishidir. Badiiy adabiyot san'atning boshqa turlari orasida alohida mavqega ega ekanligi tan olingan haqiqatdir. G'oyat ko'p o'lchovli murakkab butunlik bo'lmish badiiy adabiyot namunasi o'quvchi tomonidan to'liq his etilib, anglanib, nafis adabiyotning sehra jozibasidan atroflicha xabardor bo'lingandagina ta'sirchan estetik-ma'naviy energiyaga aylanadi. His etilmagan, anglanmagan go'zallik ma'naviyat shakllanishiga xizmat qila olmaydi. Shuning uchun ham adabiyot o'qitishda badiiy asar tahlili alohida mavqega egadir,- deya ta'kidlaydi adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev. Ta'lim bosqichlarida adabiy asarni o'rganish – uni badiiy-estetik tahlilga tortish, o'ziga xos talqinini yaratishdir. Chunki tahlil va talqinsiz hech qanday asarni o'qib-o'zlashtirib, o'rganib bo'lmaydi.

Badiiy tahlil vositasida o'quvchi asarga chuqurroq sho'ng'ib, uning mohiyatini tayin etgan poetik unsurlarni, badiiy-estetik tafakkurni, so'z sehri va jozibasini teran ilg'aydi va haqiqiy kitobxon darajasiga erishadi. Zero, asarni uqish – uni o'qishdan ko'ra muhimroq. Buni professor A.Rasulov quyidagicha izohlaydi: “O'qish, uqish jarayonidagi ijodda aql-hush yetakchilik qiladi. Aniqrog'i, kitobxon bus-butun holda qabul qiluvchi, o'zlashtiruvchiga aylanadi. Asarni o'qish, aslida, o'zi uchun ijro etishdir. Kitobxon voqealarga aralashadi, qahramonlarni jonlantiradi, ularning gap so'zlarini eshitadi, ruhiy holatlarini yurakdan his etadi”.

Ayni shu holatda badiiy matn estetik zavq manbaiga aylanadi. Zotan, o'quvchida badiiy tahlil malakasi, asar mohiyatini anglash idroki shakllanmasa, u asarni shunchaki ko'rib chiqadi, uquvsiz o'quvda esa syujet voqealari bilan tanishadi, qahramonlar taqdiri haqidagi axborotga ega bo'ladi, nari borsa asar janrini, nima haqda ekanligini angelaydi, xolos. Bunday o'qish o'quvchi tuyg'ulariga, sezgilariga yetarli ta'sir qila olmaydi, ma'naviyatida yangi sarhadlar kashf eta olmaydi, yanayam achinarlisi, bu darajadagi kitobxon badiiy-estetik jihatdan puxta va pishiq asarlarni shunchaki voqealar bayoni, hodisalar tafsilotidan iborat bo'lgan, badiiyat qonunlariga bo'ysunmagan sayoz asarlardan farqlash imkoniyatidan mahrum bo'ladi, tor va biqiq dunyoqarash bilan cheklanib qoladi.

Bu holatda adabiy matnni o'rganishdan ko'zlangan asosiy muddao – badiiy asardan estetik zavq olib, ruh va e'tiqodni poklash, ma'naviy yuksaklikka erishish tamoyili o'z

ta'sir kuchini yo'qotadi. Shu bois adabiy ta'lim jarayonida asosiy e'tiborni, pedagogik maqsadni – o'quvchilarda badiiy tahlil malakasini takomillashtirish orqali ularda yuksak badiiy didni tarkib toptirish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va shu asosda ma'naviy-estetik tafakkurini boyitishga, insoniy e'tiqodini mustahkamlashga, shaxs sifatida o'z-o'zini kamol toptirib borishga yo'naltirish lozim.

Badiiy matn bilan tanishganda undagi estetik jozibani his qila oladigan, ko'ngil qatlamlarida turli hayajonlar, insoniy kechinmalar harakatga keladigan, ruhiy kayfiyati o'zgaradigan, hayolot dunyosi tebranadigan kitobxongina o'z shaxsiyatidagi kemptikliklarni anglab yetadi, o'zligini taftish qilish orqali tafakkurini tarbiyalay oladi, ma'naviy olamini yuksaltiradi, komillik bosqichlarini egallashga intiladi. Zotan, badiiy adabiyotning har bir ta'lim bosqichida uzviylik va izchillik asosida o'qitib borilishi, adabiy ta'limning muayyan sinf, guruh yoki yo'nalish, oliy ta'limda esa muayyan soha tanlamasligi ham ayni shu xususiyatlar bilan belgilanadi. Muhimi, adabiy ta'lim jarayonida badiiy tahlil malakasini puxta egallagan o'quvchi-talaba har qanday badiiy asardan estetik zavq tuyadi, uning mohiyatini teran ilg'aydi va o'z vaqtini qanday asarlarni o'qib-o'zlashtirishga sarflashni juda yaxshi bilib oladi.

Badiiy asarni o'qiganda uning zamirida yotgan botiniy tushunchalarni, falsafiy mushohadalarni anglab yetmaslik, asardan hissiy ta'sirlanmaslik, badiiyatni shakllantirgan vositalar jozibasidan hayratlanmaslik, bir so'z bilan aytganda "estetik zavq" tuya olmaslik uni tashkil etgan "harflar, gaplar, bo'lim va boblarni, sahifalarni shunchaki ko'rib chiqish", kimningdir, yoki nimaningdir taqdiri to'g'risida axborot qabul qilishdan iborat, xolos. Bunday besamar faoliyat uchun vaqt sarflash ham o'rinsiz. Ammo badiiy tahlil malakasini o'zlashtirgan kitobxon badiiyatning asl mohiyatini anglab yetadi, undan estetik zavq oladi, ma'naviy barkamollik sari yuzlanadi. Shu bois adabiy ta'lim jarayonida asosiy etirborni o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga, badiiy tahlil malakasini takomillashtirishga qaratish joiz.

Adabiyot darslarida asarni o'rganish bilan bog'liq jihatlarni, asosan, badiiy tahlil shaklida tashkillashtirish lozim, natijada o'quvchining badiiy adabiyotga qiziqishi va muhabbati kundalik ma'naviy ehtiyojga aylanadi, chunki, nafosatga intilgan qalbda hamisha ezgu niyatlar yashaydi, yovuzliklar ortga chekinadi. Ana shunda bugungi adabiy

ta'limdan ko'zlanayotgan yuksak ma'naviyatli barkamol shaxslar safi ham kengayib boradi. Ko'ramizki, bu boradagi asosiy vazifa adabiyot o'qituvchilari zimmasida. Shu bois, avvalo, har bir adabiyot o'qituvchisining o'zida kitobxonlik madaniyati shakllangan bo'lishi, badiiy adabiyot mohiyatini teran ilg'ashi, badiiy tahlilning nazariy va metodik asoslarini puxta o'zlashtirgan bo'lishi shart. "Adabiyot o'qituvchisi badiiy asarlarni tahlil etish yo'l-yo'rig'ini fanniy asoslarda o'rganmas ekan va har qanday janrdagi asarni tahlil qila olish malakasiga ega bo'lgan holda o'quvchilar bilan yuzma-yuz bo'lmas ekan, adabiy ta'limdan kuzatilgan maqsad amalga oshmaydi"- deya uqtiradi Q.Yo'ldoshev. Zero, adabiyotning butun borlig'i, badiiy asarning ma'naviy-estetik mohiyati tahlil va talqin jarayonidagina to'la namoyon bo'ladi. Adabiyotni, adabiy asarni o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad mukammal tahlil vositasidagina o'zining oliy yechimini topa oladi. Badiiy tahlil tamoyillariga tayanib ish ko'rgan pedagog dars jarayonida badiiy matn mavzusi va mazmunini so'zlab berish, undan "ijtimoiy nasihat" ufurib turgan xulosa chiqarish bilangina cheklanib qolmasdan, o'z o'quvchilari bilan yuzma-yuz muloqotda bo'ladi, ularni adabiy-estetik tahlilga to'g'ri yo'naltira oladi. O'quvchilar badiiy tahlilsiz adabiyotning noyob durdonalarini, sara asarlarni shunchaki bilishlari, sanab o'tishlari mumkin. Ammo bu bo'lmas asarlarning barhayotligini tayin etuvchi badiiy qiymatni, asl mohiyatni tajribali o'qituvchi amalga oshirgan tahlil va talqin vositasidagina teran idrok qilish imkoniyatiga erishadilar. Ana shundagina ular Navoiy dahosining buyukligi, Bobur shaxsining dilbarligi, Mashrab ruhiyatining sarkashligi, Cho'lpon shaxsiyati to'kisligi, Qodiriy tafakkurining qudrati va jozibasini ruhan va qalban his qiladilar, bu buyuk so'z san'atkorlarini abadiyatga daxldor etgan badiiy-estetik latofatni chuqur ilg'aydilar, umuman olganda, adabiyot va badiiy asar mohiyatini anglab yetadilar. O'z navbatida esa yuksak badiiy didga, barkamol ma'naviyatga ega bo'ladilar. Demak, adabiy ta'lim jarayonida, badiiy asarni o'qib-o'zlashtirishda, badiiyatga daxldor nazariy ma'lumot va tushunchalarni shakllantirishda, shu asnoda ma'naviy barkamol shaxslarni tarbiyalashda, o'quvchilar qalbida badiiyatga, nafosatga, ezgulikka muhabbat uyg'otishda, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda ham badiiy tahlil birlamchi vazifa bajaradi.

Badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakasini shakllantirish bir jarayonda boradi.

Asarning g'oyaviy-tematik asoslarini uning obrazlari, syujet chizig'i, qurilish va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga, bog'lanishli nutqning o'sishini ta'minlaydi.

O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Asarni tahlil qilishda uning hissiy ta'sirini ham hisobga olish zarur. O'quvchi matni o'qibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan hayajonlansin. Matni tahlil qilishda o'quvchilarda fikr uyg'onsin, ularda estetik didni tarbiyalasin.

Adabiy qahramonga emosional munosabat.

Elementar tahlil qilish.

Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o'quvchilar o'z shaxsiy tushunchalaridan foydalanadilar. Qaxramonning boshqa fazilatlarini baholash uchun ularda so'z boyligi, tajriba etishmaydi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar payqay olmagan sifatlarni ko'rsatish va o'quvchilar nutqiga kiritishdir. Yana bir narsaga e'tibor berish maqsadga muvofiq:

1.O'quvchilar asar qahramoniga munosabatlarini ifodalashda u harakat qilgan sharoitni hisobga olmaydilar.

2.Qaxramonning nima uchun shunday qilishi kerakligini tushunolmaydilar, uning uchun maqsadga muvofiq ish olib borishlari zarur.

Badiiy asar ustida ishlash murakkab jarayon bo'lib o'qituvchi adabiyot darslarining ta'lim-tarbiyaviy vazifalari badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning tayyorgarligini hisobga olishni taqozo qiladi.

Badiiy asarda barcha komponentlar o'zaro bog'langan bo'ladi. Asarda obrazlar rivojlanib boradi. Voqealar rivojlanib borgan sari qaxramonlarning yangi- yangi tomonlari ochila boradi. Bu xususiyatlari asar ustida ishlashda uni yaxlit o'qishni, idrok etishni, ya'ni sintezni talab qiladi. Asar boshidan oxirigacha o'qilgandan so'ng analiz qilinadi, so'ng yana yuqori sifatli sintezga o'tiladi. Asarni o'qishga kirishishdan oldin

o'quvchilarni badiiy asarni o'qishga tayyorlash lozim bo'ladi. Demak, tayyorgarlik davri - sintez-analiz-sintez jarayonini beradi.

O'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o'tkaziladi.

Tayyorgarlik ishlarining vazifalari:

1.O'quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga ta'sir etadigan yangi ma'lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan faktlarni o'quvchilar o'z hayotida kuzatishlari bilan bog'lay olishlariga sharoit yaratish.

2.Yozuvchining hayoti bilan tanishtirish, yozuvchiga, uning hayotiga ijodiga qiziqish uyg'otish.

3.O'quvchilarni asarni emosional idrok etishga tayyorlash.

Asar mazmunini tushunishga xalal beridigan so'zlarning lug'aviy ma'nolarini tushuntirishdan iborat.

Tayyorgarlik ishlarining shakllari xilma-xil bo'lib, o'qituvchi asar mazmunini va sharoitga qarab ish turini tanlaydi. Tayyorgarlik davri uchun 2-5 daqiqa ajratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Akramova, D. (2022). ACTIVITIES OF FUTURE TEACHERS-PSYCHOLOGISTS IN THE SYSTEM OF PRESCHOOL EDUCATION. *Science and Innovation*, 1(8), 322-326.

2. Акрамова, Д. Э. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГИБКОСТИ У СТУДЕНТОВ КАК ПРОБЛЕМА СОВРЕМЕННОСТИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 13(8), 19-23.

3. Akramova, D. E., & qizi Azimova, X. D. (2023, January). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YO 'NALISHI TALABALARIDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 382-385).

4. Akramova, D. E., & qizi Suvonqulova, M. D. (2023, January). RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH VA MILLIY QADRIYATLAR NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 393-396).

5. Akramova, D. E., & qizi Ne'matova, S. S. (2023, January). BO 'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI OMILLAR. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 390-392).

6. Akramova, D. E., & qizi Axmedova, N. B. (2023, January). МАКТАВГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИ РАҲВАРИНИНГ БОШҚАРУВ МАДАНИЙАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 386-389).

7. Акрамова, Д. Э., & Бобомуродова, О. Б. (2023, January). ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ ҲАҚИДА ТУШУНЧА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 352-354).

8. Акрамова, Д. Э., & қизи Тожиҳонова, Л. У. (2023, January). ТАРБИЯ–ИЖТИМОЙ–ПЕДАГОГИК ҲОДИСА ВА ЖАРАЁН СИФАТИДА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 375-377).

9. Акрамова, Д. Э., & қизи Бозорбоева, Д. А. (2023, January). ЖАМОА–ТАРБИЯ ОБЪЕКТИ ВА СУБЪЕКТИ СИФАТИДА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 355-357).

10. Акрамова, Д. Э., & Йўлдошева, Н. (2023, January). ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИ МАЖМУИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 362-364).

11. Акрамова, Д. Э., & қизи Раҳимберганова, М. М. (2023, January). ПЕДАГОГИК ЖАРАЁНДА ТАРБИЯНИНГ МАЗМУНИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 372-374).

12. Акрамова, Д. Э., & қизи Давронова, Ж. С. (2023, January). ТАРБИЯ ТИЗИМИ ВА УНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 358-361).

13. Акрамова, Д. Э., & Жасур, С. (2023, January). МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ, УНИНГ ТИЗИМИ ВА МОҲИЯТИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 349-351).